

7.	Fan dasturi Oliy va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2020 yil <u>29</u> <u>08</u> dagi <u>4</u> -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil <u>19</u> <u>08</u> dagi <u>452</u> -sonli buyrug'i bilan ma'qullangan fan dasturlarini tayanch oliy ta'lim muassasasi tomonidan tasdiqlashga rozilik berilgan.
8.	Fan/modul uchun mas'ullar: PhD. N.Xodjayeva. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrası mudiri.
9.	Taqrizchilar: PhD. X.X.Hamidov – Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti, "Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika" kafedrası dotsenti. E.Ochilov – O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"

G.Sh.Rixsiyeva

2020 yil 28 08

"KELISHILDI"

Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi

2020 yil 19 08

Ro'yxatga olindi: MD № 5A610301

2020 yil 19 08

**TARJIMA AMALIYOTI
(SHARQ TILLARI BO'YICHA)**

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	600000 – Xizmatlar sohasi
Ta'lim sohasi:	610000 – Xizmatlar ko'rsatish sohasi
Mutaxassislik:	5A610301– Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)

Toshkent – 2020

	• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	VI. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Ochilov E. Tarjimashunoslikning nazariy masalalari. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014. 2. Ochilov E. Tarjima nazariyasi. – Toshkent: Sharqshunoslik instituti, 2014. 33. Саломов Ф. Таржима назариясига кириш. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1978. 4. Сдобников В.В., Петрова О.В. Теория перевода (учебник). – М.: АСТ: Восток-Запад, 2007. Кўшимча адабиётлар: 1. Мухтаров Т., Ходжаева Н. Научно-технический перевод (учебное пособие). – ТашГИВ, 2015. 2. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: “Маънавият”, 1999. 2. Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти (Ўқув кўлланма). – Тошкент: Шарқшунослик институти, 2012. 3. Очилов Э. Таржимашунослик терминларининг изоҳли лугати. – Тошкент: Шарқшунослик институти, 2014. 4. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDShI, 2014. 5. Чернов Г.В. Синхрон таржима назарияси ва амалиёти (рус тилидан Х.Ҳамидов таржима қилиб нашрга тайёрлаган). – Т.: ТошДШИ, 2019. 6. Hamidov X., Alimbekov A., Sharq xalqlari adabiyotidan tarjimalar. – Toshkent, 2013. 7. X o d j a y e v a N. Hindiycha-o'zbekcha, o'zbekcha-hindiycha iboralar lug'ati. – Toshkent, 2015. 7. Ҳамидов Х.Х. Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. – Тошкент: ТошДШИ, 2014. – 148 б. 8. Hamidov X.X. Maqol va idiomalar tarjimasi muammolari. –Toshkent: ToshDSHI, 2017. Axborot manbaalari http://www.ziyo-net.uz http://www.kutubxona.uz.

(Handwritten signature)

	tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	IV. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida magistrant: tarjima amaliyoti, uning usul va metodlari; chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari; barcha til birliklari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tarjima qilish haqida tasavvurga ega bo'lishi; tarjima amaliyotining grafik, punktuatsion, leksik, grammatik va stilistik jihatlari va ularni tarjima qilish yo'llari; so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish usullarini yaxshi bilishi; tarjima amaliyotida uchraydigan leksik, grammatik, fonetik, grafik muammolarini tarjimada berish ; tarjima amaliyotida keng foydalaniladigan tarjima transformatsiyalarini, ularning turlarini tegishli o'rinlarida qo'llash; o'zbek tilidan o'rganilayotgan sharq tiliga turli uslubdagi matnlarni tarjima qilish; og'zaki va yozma matn tarjimalarining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, tamoyillari amalda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarjima mahoratini o'rgatishdan iborat. Fan bo'yicha magistrantlarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Magistrant: tarjima amaliyoti, uning usul va metodlari; chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilishning o'ziga xos xususiyatlari; barcha til birliklari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tarjima qilish haqida tasavvurga ega bo'lishi; tarjima amaliyotining grafik, punktuatsion, leksik, grammatik va stilistik jihatlari va ularni tarjima qilish yo'llari; so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, umumlashtirish, konkretlashtirish usullarini yaxshi bilishi; tarjima amaliyotida uchraydigan leksik, grammatik, fonetik, grafik muammolarini tarjimada berish ; tarjima amaliyotida keng foydalaniladigan tarjima transformatsiyalarini, ularning turlarini tegishli o'rinlarida qo'llash; tilning boyligini ko'rsata bilish; qiyin so'zlarni tarjima qila olish; tarjima qilib bo'lmaydigan so'zlarni kompensatsiya qila olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.
4.	V. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • interfaol key-studyalar;

Fan/modul kodi 5ATA126	O'quv yili 2020-2021	Semestr 1-2-3	ECTS - Kreditlar 2-2-2	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 2-2-2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tarjima amaliyoti (sharq tillari bo'yicha)	90	90	180
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga amaliy tarjima qilish bilimlarning nazariy asoslarini, sharq tilidagi va ona tilidagi uslubshunoslikning asosiy tushunchalari va kategoriyalarini, turli uslubdagi matnlar tajimasi modellari, talablari va tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amalda tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishga yo'naltirilgan. Fanning vazifasi – magistrant-talabalarni mutaxassislik yo'nalishi va matn xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, o'rganilayotgan sharq tilidan o'zbek tiliga, o'zbek tilidan o'rganilayotgan sharq tiliga turli uslubdagi matnlarni tarjima qilish; og'zaki va yozma matn tarjimalarining o'ziga xos xususiyatlari, turlari, tamoyillari amalda qo'llash malaka va ko'nikmalarini shakllantirish hamda tarjima mahoratini o'rgatishdan iborat. Ayni paytda, magistrantlarni tarjima asarlarini tahlil qilish va ularga baho berishga o'rgatish maqsadida tarjimani ilmiy baholash mezonlari; tarjima sifatini aniqlashda qiyosiy metod; tarjimada filologik tahlil; so'z tanlash muammosi; badiiy matn va tarjimon mahorati; tarjima konsepsiyasi; tarjima uchun asar tanlash kabi mavzular ham o'quv dasturiga kiritildi. II. Asosiy nazariy qism (o'quv rejada ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan). III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: 1-mavzu. Mavzu "Tarjima amaliyoti" fanining predmet va vazifalari. Tabiiy, aniq va eng samarali tarjima qilishning yagona yo'li. Uch tarjima sohasi: a) ilm-fan va texnikaga oid matnlar tarjimasi; b) iqtisodiy, ijtimoiy va/yoki siyosiy mavzu va sohalar tarjimasi va c) adabiy va falsafiy asarlar tarjimasi. "Oltinchi tuyg'u". Tarjimon o'z tilida sezgi va hisga ega bo'lishi. Tarjima borasida umumiy tavsiyalar. Ma'no, til, madaniyat va tarjima o'rtasidagi aloqadorlik. Tarjima dinamikasi. asl matn (Source Language). tarjima tili (Target Language). Matn yo'nalishlari. Asl matn			

muallifining shaxsiy uslubi. Ushbu matn turining odatiy grammatik va leksik ishlatilishi. Matn elementlarining bevosita asl matnga yoki uchinchi til (SL ham, TL ham emas) madaniyatiga bog'liqligi. Ma'lum davr an'analari ta'siri ostida chop etilgan kitob, davriy nashr, gazeta va boshqalardagi matnning odatiy ko'rinishi. Milliy, siyosiy, etnik, diniy, ijtimoiy guruh, jins va boshqa shu kabi tarjimon qarashlarini ifodalovchi, tarjimon jamoaviy moyilligi omilini o'z ichiga oluvchi, shaxsiy va sub'ektiv, yoki ijtimoiy va madaniy bo'lishi mumkin bo'lgan tarjimon qarashlari va fikrlari. Tarjimada to'siqlar. Tarjima kasb sifatida. Amaldagi tarjima nazariyasi. Tarjimaning eng birinchi muammolari. Tarjima amaliyoti muammolari.

2-mavzu. Matn tahlili

Matnni o'qish. Ikki asosiy maqsadli o'qish. Matnni tushunish. Umumiy va detali o'qish. Matnning maqsadi. Muallifning maqsadi. Kalit so'zlar. Matnni soddalashtirish, qayta tuzish, aniqlashtirish. Tarjimon maqsadi. Matnning 4 ta asosiy tiplari: hikoya qiluvchi matn. Tasvirluvchi matn. Muhokama qiluvchi matn. Kitobxonlar doirasi. Tarjima qilinayotgan til kitobxonlari. Kitobxonlarning ta'lim olganlik darajasi, ijtimoiy sinf, yosh, jins kabi xususiyatlari. Matnda rasmiylik, umumiylik (yoki spetsifiklik) va emotsionallik ton. Stilistik darajalar. O'ta rasmiy (officialese) daraja. Rasmiy (official) daraja. Ommaviy rasmiy (formal) daraja. Neytral (neutral) daraja. Norasmiy (informal) daraja. So'zlashuv uslubi (colloquial). Sheva (slang, sleng). Umumiylik yoki qiyinlikning darajalari. Asar muallifning mezonlari. Sozlash (shart-sharoitlarni baholash). Kitobxonlarning 3 ta asosiy tiplari. Ekspert, bilimli havaskor va bexabar bo'lgan kitobxon..

3-mavzu. Tarjima jarayoni

Kirish. Tarjima tartibi. Yondoshuv metodi. 4 bosqichda tarjima. Manba tildagi matnning darajasi. Referentlik darajasi. Bog'langanlik darajasi. Tabiiylik darajasi. Tarjima qilishning tarjima nazariyasiga bog'liqligi. Tarjima metodining "Tabiiy" bo'lishi. Tarjimonning shaxsiy versiyasi. Yondashuv. Tarjima muhokamasi. Tarjimaning referentsial va pragmatik tomonlari. Taxminiy (dastlabki) tarjima jarayoni. Tarjima qilishga ikkita yondoshuv. Tarjimaning psixologiyasi va falsafasi. Matn darajasi. So'zma-so'z tarjima darajasi. Referentsial (tushunish) daraja. Referentsial (tushunish) daraja. Bog'liqlik darajasi. Tabiiylik darajasi. So'z tartibi. Umumiy tuzilish. Qardosh so'zlar. Gerundiy, infinitiv, fe'l-otning mosligi. Tarjimaning "haqiqiylik" bosqichi. "Tabiiylik" bosqichi. Tarjima birliklar. Tarjima muammosining birinchi belgilari. Leksikani tarjima qilish. Atoqli otlarning tarjimasi. Qayta ko'rib chiqish.

4-mavzu. Til funksiyalari, til kategoriyalari va matn turlari

Tilning 3 ta asosiy funksiyalari. Ekprassiv funksiya, information funksiya, vokativ funksiya/ ekspressiv funksiyaning mazmuni. Jiddiy xayoliy adabiyot. Rasmiy bayonotlar, rasmiy hisobotlar. Ekspressiv matn

So'zlarni aynan o'zini to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish. Lisoniy kontekst. Iqtibosli kontekst. Madaniy kontekst. Individual kontekst. Dialekt tarjimasi. Nasr, reklama va qofiyalarning ayrim tovush effektlari qayd etilishi. Nasr, reklama va qofiyalarning o'rmini bosuvchi unsur qo'llanilishi. So'z o'yinlari. Qofiyalar, qofiyalarning o'z yoki ko'chma ma'nolari, ularning hajmi. Sheva tarjimasi. Sheva vazifalari: a) til jargonini ko'rsatish; b) ijtimoiy tabaqa o'rtasidagi farqni bo'rttirib ko'rsatish; c) mahalliy madaniy tavsiflarni ko'rsatish. Tarjimon va kompyuter. Tahrir qilish. Tarjimoni boshlashdan avval tegishli grammatik va leksik axborotni kompyuter xotirasiga kiritish. Tugmalarni bosish, boshqacha aytganda, tarjima jarayonida kompyuterni boshqarish. Tahrirdan keyingi ishlar. Terminologik ma'lumotlar zaxirasini saqlash va qo'llash. Vazifa va tavsif. Eponimlar va akronimlar tarjimasi. Eponimlarning uch kategoriyasi: shaxsiy, ob'ektiv va joylashgan o'rni ga ko'ra eponimlar.

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

III. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. G'aybullay Salomov – o'zbek tarjimashunosligining asoschisi.
 2. Muayyan asar tarjimasiga taqriz yozish.
 3. Xorazm tarjima maktabi
 4. Ogahiyning tarjimonlik mahorati
 5. Jumaniyoz Sharipovning tarjimonlik va tarjimashunoslik faoliyati
 6. Tarjimada kompensatsiya
 7. Tarjimada adaptatsiya va uning ko'rinishlari
 8. Antonimik tarjimalar tahlili
 9. Badiiy matn tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari
 10. Tarjimaning ijodiy xarakteri
 11. Tarjima asarlari tahliliga bag'ishlab ilmiy maqola yozish.
 12. Personajlar nutqining qayta yaratish qiyinchiliklari
 13. Terminlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari
 14. Badiiy san'atlarni tarjimada qayta yaratish
 15. Soxta ekvivalent va tarjima
 16. Asliyatdan oshirib tarjima qilish mumkinmi?
 17. Tarjimada aniqlik va erkinlik nisbati
 18. Qayta tarjimaning asosiy talablari
 19. Milliy koloritning tarkibiy qismlari
 20. Frazologizmlar tarjimasida qo'llaniladigan asosiy usullar
 21. Diniy asarlar tarjimasi mushkulotlari
 22. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy omillari.
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha magistrant-talabalar

Tarjima qilish usuli. Ilmiy maqola sarlavhasi. Standartlashgan atamalar. Matn bo'ylab tekshirish. Notanish, shubhasiz ravishda, aniq grek yoki lotin morfemali so'zlar. Figura va simvollar. Texnik tilning haqiqiy boyligi va uning potentsial cheksizligi.

15-mavzu. Jiddiy adabiyotni va avtoritativ (ma'muriy) bayonotlarni tarjima qilish

Kognitiv tarjima (quruq ma'lumotni o'tkazish). Ma'muriy bayonotlar tarjimasi. So'zma-so'z, ko'rsatma beruvchi va faqat ba'zi abzaslarda figurativ (metaforik, simvolik) tarjimasi. She'riyat. She'riyatda parallel ta'sir. Poetik tarjimaning umumiy nazariyasi. Qisqa hikoya/novella. Kichik (qisqa) hikoyalarni tarjima qilish qiyinligi. Rasmiy va tematik konsentratsiya. Drama. Pesa o'qish.

16-mavzu. Ma'lumotnoma kitoblari va ularning foydalari, topilmas so'zni belgilash

Manbalar. Lug'at. Topilmas so'zlar. Topilmas so'zlarning tiplari. Tilda topilmas so'z ularning 18 xil turi. Neologizmlar, zamonaviy va asl, yangi bosilgan formalar, yangi o'ylab topilgan liazalar, yangi so'z birikmalari, qo'shma otlar, yangi terminologiya, yangicha ma'noga ega bo'lgan qadimiy so'zlar va iboralar, akronimlar, qisqartmalar, gibril so'zlar, eponimlar, morfemalarning yangi kombinatsiyasi. Dialekt, patua (mahalliy til) va maxsuslashtirilgan til. Yangi yoki zamondan orqada qolgan geografik va topografik terminlar. Kichik qishloqlar, tumanlar, daryolar, tepaliklar, ko'chalarning nomlari, noma'lum (kam tanilgan) insonlarning ismlari, yangi yoki uncha muhim bo'lmagan institutlarning otlari. Terishda qilingan xato, noto'g'ri nusxa olishlar, notog'ri harflab aytish, ayniqsa atoqli otlarni (odamlar va geografik joy nomlarini) va notabiiy transliteratsiyalar. Arxaik so'zlar. So'zlar yoki atoqli otlarning notanish tag ma'nolari yoki simvolik ma'nolari. Kod so'zlar. Lug'at so'zlari.

17-mavzu. Tarjima tanqidi

Kirish. Tarjima tanqidi. Tarjima nazariyasi va amalyoti o'rtasidagi muhim aloqa sifatida. Tarjima tanqidi – tarjima darsida eng muhim komponentlardan biri. tarjimon sifatidagi qobiliyatini kuchaytirish. Bilim, til mavzu bo'yicha tushunchalarni kengaytirish. Tarjima tahlilini amalga oshiruvchilar: a) mijoz; b) professional tarjima tanqidchisi yoki baholovchi o'qituvchi; va c) nihoyat nashr qilingan ishning kitobxonlari. Tanqid rejasi. manba tilidagi matnni maqsad va vazifaviy aspektlariga urg'u bergan holda, uning qisqacha tahlili. Tarjimonning manba tildagi matn maqsadini tushuntirishi, uning tarjima qilish metodi va tarjimaning kutilgan kitobxonlari doirasi. Matn tahlili. Muallifning maqsadi. Tarjimonning maqsadi. Tarjimoni asliyat bilan solishtirish. Tarjimoni baholash. Tarjima tahlili.

18-mavzu. Qisqaroq bandlar. So'zlar va kontekst
Gapni yoki fikrni yoki axborotni tarjima qilish. Atay tarjima qilmaslik.

turlari. Avtobiografiyalar, esselar, shaxsiy yozishmalar. Ekspressiv matnlarning ifodaviy unsurlari. Shaxsiy komponentlar. Ma'lumot beruvchi funksiya. Informativ matn. Akademik nashrlar uchun formal, emotsional bo'lmagan, texnik uslub. Neytral yoki norasmiy uslub tartibga asoslanmagan metaforalar, aktiv fe'llar, hozirgi zamon va birinchi shaxsda ko'plik qo'shimchalari tomonidan qo'llanmalardagi muayyan matnga asoslangan atamalarga aniqlik kiritish. San'at kitoblari va ilmiy-ommabop nashrlar uchun "iliq" norasmiy usul (san'at bo'yicha ko'plab rasmlar bilan chiqarilgan sovg'a kitob). Ommabop jumalistika uchun samimiy, o'ziga xos, texnik bo'lmagan uslub. Vokativ funksiya. Connative'(denoting effort), instrumental, operativ va fragmental xususiyatlar.

5-mavzu. Tarjima usullari

Badiiy yoki erkin tarjima. So'zma-so'z tarjima. Semantik tarjima. To'g'ri (haqqoniy) tarjima. Adaptatsiya. Idiomatik tarjima. Kommunikativ tarjima. Madaniy so'zlar. interlinar tarjima. Asl matnning aniq kontekstual ma'nosi. Bu uslublarga izohlar.

6-mavzu. Tarjima birligi va diskurs tahlil

Kirish. Tarjima birligi tushunchasi. Diskurs tushunchasi. Diskurs tahlil va uning o'ziga xos xususiyatlari. So'z, matn, tarjima birligi sifatida. Matnning tarjimaga ta'sir qiluvchi lingvistik aspektlari. Matn tarkibi. Kirish. Asosiy qism. Xulosalar. Matn sarlavhasi. Sarlavhani tarjima qilishdagi o'ziga xosliklar. Matn bog'liqligi. Monolog va dialogning o'ziga xos xususiyatlari va ularni tarjimada berilishi. Punktualsiya. Tarjima Punktualsiyaning o'mi va roli. Diskurs tahlilda punktualsiya. tovush effektlari. Tovush effektlarining diskursdagi o'mi. Ketma -ketlik. referentsial sinonimlar. Gapning funksional, semantik va sintaktik aspektlari. Hisoblash jarayoni. Boshqa bog'lovchilar. Gapning funksional istiqboli. Kontrastlar.

7-mavzu. So'zma-so'z tarjima

Ko'p miqdorli ko'p so'zli metaforalar. Bir so'zli metaforalar. Guruh-guruh tarjimasi. So'z birikmasi-so'z birikmasi tarjimasi. Gap bo'lagi-gap bo'lagi tarjimasi. Gap-gap tarjimasi. Maqollar. So'zma-so'z tarjima - tarjimaning asosiy jarayoni. So'zma-so'z tarjimaning qiyinlashishi. She'riyatda tarjima. Mustaqil she'rni qayta yaratish. Asliga muvofiq tarjima. Sodiqlik va soxta do'stlar. Ob'ektlar va harakatlarning tarjimasi. Kontekstual so'zlar. Nozik tafovutlar. Qayta-tarjima testi. Institutsional atamalar. So'zma-so'z tarjimaning cheklanishi. Tabiiy tarjima. Qayta qilingan tarjima. Badiiy tarjima. "SUB"-MATN. Nomuqobil so'z tushunchasi. Kontekstning roli.

8-mavzu. Boshqa tarjima jarayonlari

O'tkazish. (emprunt, loan word, transkripsiya). Naturalizatsiya. Madaniy ekvivalent. Madaniy birlik analizi. Tasviriy ekvivalent. Sinonimlik. sinonimiksiz tarjima. Bilvosita tarjima So'z birikmalari, tashkilot nomlari, qo'shma so'zlar qismlari. Iboralar badiiy tarjimasi.

“qarzga olingan tarjima”. O’zgarish yoki o’rin almashinish. Standart tarjima. Modulyatsiya. “Ikki karra salbiylik uchun ijobiylik”. “Ijobiylik uchun ikki karra salbiylik”. “Butun uchun qism”. Vinay va Darbelet usuli. “Passiv uchun faol” (yoki aksincha) odatiy tarjima. modulyatsiya jarayonlari: a) aniqlik uchun mavhumlik; b) natija uchun sabab; c) bir qism boshqasi uchun; d) atamalarining aksiga o’zgarishi; e) passiv uchun faol; f) vaqt uchun makon; g) oraliq va cheklovlar; h) ramzlarning o’zgarishi. Tan olingan tarjima. Tarjima “yorlig’i”. O’rmini qoplash. Tarkib analizi. Qisqartma va kengaytmalar. Qayta iboralashtirish. Kuplet. Ilovalar, qo’shimchalar, izohlar.

9-mavzu. Tarjima va madaniyat

Madaniyat. Madaniy focus. Sub-madaniyatlar. Madaniy so’zlar. Madaniy kategoriyalar. So’zlarning asosiy yoki majoziy ma’nolari. noma’lum yoki noto’g’ri talqin. Ekologiya. Xom-ashyoni ifodalovchi madaniy birliklar. Oziq-ovqat nomlari. Kiyim-kechaklar nomlari. Uylar va shaharlar nomlari. Transport nomlari. Ijtimoiy sohaga oid madaniyat birliklar. Tashkilotlar, rasm-rusumlar, faoliyat, jarayonlar, tushunchalar. Siyosiy va boshqaruvga xos nomlar. Diniy atamalar. Badiiy atamalar. transferensiya (ko’chirish). komponent tahlillar. Ijtimoiy madaniyat. Ijtimoiy tashkilot — siyosiy va boshqaruv organlari nomlari. Tarixiy atamalar. Arxaizmlar. Xalqaro atamalar. San’taga oid atamalar.

10-mavzu. Metaforalar tarjimasi

Metafora. Metaforalarning tarjimasi. Ko’p ma’noli so’zlar. Ko’p ma’noli iboralar. Metaforik xususiyat. Bitta so’z ko’rinishida metafora. Bir nechta iboralardan tashkil topgan metaforalar. Pragmatik va kognitiv aspekt. Refentsial maqsad. Estetik maqsad. Sof (original), o’zlashgan turg’un metaforalar. Semantik chegara. Semantik chegaraning a) ijobiy yoki salbiy; b) konnotativ yoki denotativ hususiyatlari. Metafora orqali tasvirlanayotgan obraz. Universal obraz. Majoziy so’zlar. Metonimiya. Ramz. Metafora turlari. O’lik, klishe (qolipli), turg’un, o’zlashtirilgan, so’nggi (yangi) va original metaforalar. kontekstual omillar. norasmiy kontekst. Tarjima tilida ham xuddi shunday tasvirni qayta yaratish. manba tilidagi obraz — tasvirni tarjima tilidagi boshqa obraz-tasvir bilan almashtirish. Metaforalar bir xil mavzular doirasida hosil bo’lganda ekvivalentlikka erishish.

11-mavzu. Tarjimada komponent tahlil

Tarjimada komponent tahlil tushunchasi. MT va TTdagi o’xshash ma’noga ega, biroq so’zma-so’z muqobil bo’lmagan birliklarni qiyoslash. TT semantik komponentlari. Adekvat tarjimasi amalga oshirish. Leksik birlikning semantik komponentlari. Madaniy kontekst va konnotasiya. Qo’llanilish darajasi, davri, tarqalganligi, rasmiylik darajasi, hissiy ohangi, umumiyliigi yoki terminga oidligi. Referentsial komponentlar. Pragmatik ma’no. Semalar. Semantik xususiyatlar. Obrazli yoki maxsus-texnik komponentlar. MT leksik birligining komponent tahlili. MT so’zining

ekstrakontekstual komponent tahlili. MT so’zini semantik chegaralash. Leksik so’zlar. So’zlarning pragmatik komponenti, asosan ijobiy yoki salbiy ma’noga egaligi. Rasmiyatchilik darajasi. Madaniy so’zlar. Sinonimlar. Birikmalar va qatorlar. Konseptual terminlar. Neologizmlarni tarjima qilish. Afsonaviy so’zlar. Internatsional so’z.

12-mavzu. Tarjimaning grammatikasiga murojaat

Grammatika matnning asosi sifatida. Grammatika va leksika. So’z tartibi grammatikaning bir xususiyati tarzida. Noodatiy (yoki “belgilangan”) so’z tartibi. Til tamoyillari. Matn yozilgan tildan tarjima qilinayotgan tilga o’girilishi asosida nazariyani barpo qilish tamoyillari. Kontekstga asoslangan grammatika. Tushib qolgan fe’llarni tarjima qilish, masalan, fe’lning qudrati. Semantik tanlov. Semantik cheklov. Ko’makchi tushirib qoldirilgan tarjimalar. SL matnlarida ko’makchilarning qo’llanilmasligi. Majburiy ko’makchili bo’shliqlarni to’ldirish. O’rttirilgan ko’makchili bo’shliqlar. An’anaviy grammatika. Ixtiyoriy ko’makchili birikmalar. Qisman pragmatik, qisman uslubiy sabablarga asoslangan qaror. Ikkinchi darajali ma’lumot (Helbigning mustaqil ko’rsatkichlari. Kontekst-partnyorning har xil turlari. Semantik jihatdan mos bo’lmagan muqobil tanlovlar. Tarjimada qarama-qarshilik va tanlov. Tarjima ikki qismdan iborat; kontativ mexanik va bo’sh o’rinlar. Ba’zi taalluqli masalalar.

13-mavzu. Neologizmi o’girish

Kirish. Yangi ixtiro qilingan leksik birliklar yoki yangi ma’no kasb etgan mavjud leksik birliklar. Eponimlarga (atoqli otdan kelib chiqqan istalgan so’z va qisqartmalar). Kitobning turiga qarab uch xil o’qish turi: 1) ekspert; 2) asl manba madaniyati yoki mavzuga doir qo’shimcha ma’lumotlarni talab qilishi mumkin bo’lganlarga umumiyashtirilgan talim; 3) bilmaydiganlar, turli xil darajadagi tilshunoslik hamda muayyan mavzuga oid va madaniy tushunchalarga muhtojlar. Yangi ma’no berilgan birikmalar biror madaniyatga taalluqli yoki taalluqli bo’lmazligi. Yangi so’zlarning yuzaga kelishi. So’zlarning etimologiyasi. Sheva so’zlar. Brand yoki savdo belgisi so’zlari. Neologik ramz. Kelib chiqqan so’zlar. Qisqartmalar. Qisqartmalar haqiqiy bo’lmagan neologizmning doimiy turi sifatida. Eponimlar. Umumlashtirilgan eponimlar. Geografik nomlardan kelib chiqqan yangi eponimlar. Yangi “iborali so’zlar”. Semantik ekvivalentlari. Ma’nosi ko’chgan yangi so’zlar. Akronimlar. Soxta neologizmlar. Neologimlar tarjimasi jadvali. Muayyan mavzuga oid tarjima.

14-mavzu. Texnik tarjima

Texnik tarjima. Texnik tarjimadagi asosiy qiyinchilik. Yangi terminologiya. Texnik matn. Asosiy atamalar. Texnik neologizmlar. Texnik uslubning har xil turlari. Texnik tilning to’rt turi. Ilmiy til. Ish yuzasidan til. Kundalik muloqotdagi til. Reklama/sotuv tili. Texnik tilning darajalari. Akademik daraja. Kasbga doir daraja. Ommabop daraja. Texnik va tasvirlovchi atamalar. Texnik tarjimonlar. Texnik tarjimaning boshlanishi.